



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2022 - yil 19 - yanvar

28-8-117-Q/22

Termiz tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-76-son qarori hamda viloyat hokimining 2022-yil 14-yanvardagi 15-8-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-76-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-76-son qarori hamda viloyat hokimining 2022-yil 14-yanvardagi 15-8-0-Q/22-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaroriga asosan:

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasini hamda ekologik nazorat tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlanganligi;

2022-yil 1-martdan boshlab:

a) davlat organlari, muassasalari va korxonalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ko‘p kvartirali uy-joylar mulkdorlariga ular egaligidagi

bino va inshootlarga tutash (chegaradosh) bo'lgan yer uchastkalari quyidagi shart va majburiyatlar bilan ularga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilishi:

yer uchastkalarining obod holda saqlanishi;

daraxtlar, butalar, boshqa o'simliklar va nihollarni parvarish qilish va sug'orilishi;

yig'ishtirish-tozalash ishlarini amalga oshirish va chiqindi qutilarining o'rnatilishi;

bolalar maydonchalari, o'tirish joylari (skameykalar), tungi yoritish tizimini o'rnatish, ta'mirlash va saqlanishi;

aholi uchun piyoda yo'laklarini barpo etish, ta'mirlash va lozim darajada saqlanishi;

b) mazkur bandga asosan doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib beriladigan yer uchastkalarida bino, inshoot, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish hamda yengil konstruksiyali obyektlarni o'rnatish va qurish taqiqlanishi;

d) davlat organlari, muassasalari va korxonalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda ko'p kvartirali uy-joylar mulkdorlariga tegishli yer uchastkalarini doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berish ushbu bandning "a" va "b" kichik bandlarida nazarda tutilgan talablar asosida tuman hokimliklari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshirilishi;

e) mazkur bandga asosan doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib beriladigan yer uchastkalarida davlat organlari, muassasalari va korxonalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ko'p kvartirali uy-joylar mulkdorlari tomonidan belgilangan shart va majburiyatlar bajarilishi ustidan nazorat ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi xizmati, Milliy gvardiyaning patrullikka jalb etilgan bo'linmalari hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari tomonidan amalga oshirilishi;

2022-yil 1-fevraldan boshlab:

tuman hokimining kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi tugatilib, qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (Sh.Qalandarov), Kadastr

agentligining Termiz tuman bo‘limi (M.Yakubov), tuman Qurilish bo‘limi (Sh.Xolmurodov), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha tuman inspeksiyasi (I.Xaitov):

2023-yil 1-yanvarga qadar aholi punktlarida joylashgan hamda bo‘sh turgan obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishga mo‘ljallangan yer uchastkalari tegishli davlat organlari, muassasalari va korxonalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ko‘p kvartirali uy-joylar mulkdorlariga ajratilishi;

doimiy ravishda shaharsozlik faoliyati natijasida shakllangan yangi obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishga mo‘ljallangan yer uchastkalari belgilangan tartibda tegishli davlat organlari, muassasalari va korxonalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ko‘p kvartirali uy-joylar mulkdorlariga ajratilib berilishi yuzasidan takliflar kiritib borsin.

4. Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (Q.Shaymardonov), tuman hokimining kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi tugatilib, qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi kiritilishini ta‘minlasin.

5. Tuman hokimining 2018-yil 15-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-oktabrdagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3956-sonli qarori hamda viloyat hokimining 2018-yil 9-oktabrdagi 746-sonli ijrosini ta‘minlash haqida” 2981-sonli qarori 2-bandining yettinchi to‘qqizinchi xatboshilari chiqarib tashlansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Termiz tuman hokimi



Urinov SH. B.